



O'ZBEKISTON PREZIDENTI AQSH DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-avgust kuni AQSH Senati Milliy xavfsizlik va hukumat ishlari bo'yicha qo'mitasi raisi Geri Pintersni qabul qildi.



O'zbekiston bilan AQSH o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash hamda amaliy hamkorlikni, eng avvalo, ikki mamlakatning parlamentlararo muloqoti doirasida kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro aloqalar va almashinuvlar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ikki tomonlama savdo ko'rsatkichlari o'smoqda, AQSHning yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi muvaffaqiyatli kooperatsiya loyihalari ko'paymoqda. Muhim gumanitar dasturlar amalga oshirilmogda.

Ustuvor yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni ilgari surish maqsadida parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar, shu jumladan, AQSH Prezidenti tashabbusi bilan Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasi tadbirlari doirasida o'tkaziladigan "C5+1" formatidagi birinchi sammitga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan fikr almashildi.

O'za

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O'TTIZ IKKI YILLIGI MUNOSABATI BILAN YUQORI NATIJALARGA ERISHGAN SPORTCHI VA MURABBIYLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda sportni rivojlantirish va keng ommalashtirish, yurtimizning xalqaro maydondagi shon-shuhratini yuksaltirishga qo'shgan katta hissasi, sport sohasiga qaratilayotgan e'tibor va yaratilgan sharoitlardan samarali foydalangan holda, o'zining azm-u shijoati va yuksak mahorati bilan nufuzli musobaqalarda ulkan natijalarga erishib, Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilib kelayotgani, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, yoshlarimizni ona yurtga muhabbat va sadoqat, milliy, umumbashariy qadriyatlar ruhida yetuk va barkamol etib tarbiyalash borasidagi alohida xizmatlari uchun quyidagilar mukofotlansin:

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan

Maxsitov Baxodir — O'zbekiston sport tashkilotlari faxriylari kengashi raisi

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustози" faxriy unvoni bilan

G'afurov Davron Dilmurodovich — O'zbekiston boks federatsiyasi murabbiysi

Xudayberganov Jamshid Ismailovich — Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash

markazining dzyudo bo'yicha murabbiysi, Xorazm viloyati

Yarashov Yergali Abubakirovich — Qibray tumani sport maktabining boks bo'yicha murabbiysi, Toshkent viloyati

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvoni bilan

Abdullayev Ruslan Anvar o'g'li — Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

Do'smatov Xasanboy Marfjon o'g'li — Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi

[▶ Davomi 2-betda](#)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI UNESCO — O'ZBEKISTON XALQARO MUKOFOTINI TA'SIS ETISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH TO'G'RSIDA

Jahon tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-ma'rifiy merosini xalqaro darajada chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish, sun'iy idrok sohasida odob-axloq, inklyuzivlik va madaniy xilma-xillikni rag'batlantirish, O'zbekiston va UNESCO o'rtasidagi ilmiy-madaniy aloqalarni yanada kengaytirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-361-son qaroriga muvofiq:

1. Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma), UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, Fanlar akademiyasining:

UNESCO bilan hamkorlikda sun'iy idrok sohasida odob-axloqni targ'ib etish orqali ilmiy muloqotni rag'batlantirish bo'yicha Abu Rayhon Beruniy nomidagi UNESCO — O'zbekiston xalqaro mukofotini ta'sis etish;

2. Quyidagilar: Parij shahridagi (Fransiya) UNESCO bosh qarorgohida 2023-yil 4-8-sentabr kunlari Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodiga bag'ishlangan xalqaro ko'rgazma va tadbirlarni (keyingi o'rinlarda — Ko'rgazma) yuqori saviyada o'tkazish to'g'risidagi takliflari qo'llab-quvvatlash.

3. Quyidagilar: UNESCO bosh qarorgohida Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodiga bag'ishlangan xalqaro ko'rgazma va tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

UNESCO bosh qarorgohida Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodiga bag'ishlangan xalqaro ko'rgazma va tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish hamda ularni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2023-yil 25-avgust

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING O'TTIZ IKKI YILLIGI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH CHET EL INVESTORLARINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Davlatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, diplomatik, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni kengaytirishga qo'shayotgan katta hissasi, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish, samarali innovatsion loyihalar va qo'shma dasturlarni amalga oshirish, respublikamizdagi keng qamrovli islohotlar va demokratik o'zgarishlarni, O'zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan global va mintaqaviy tashabbuslarni faol

qo'llab-quvvatlash borasidagi alohida xizmatlari, shuningdek, xalqlarimiz orasidagi do'stlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash yo'lida-gi ibratli faoliyati uchun quyidagilar "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlansin:

Gurjiy Stepan Leonidovich — Rossiya Federatsiyasi "Lukoil" aksiyadorlik jamiyatining Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika bo'yicha vitse-prezidenti

Muxammad Abunayyan — Saudiya Arabistoni Podshohligi "ACWA Power" kompaniyasi boshqaruvi raisi

Muxammad Jamil Al-Ramaxiy — Birlashgan Arab Amirliklari "Masdar" kompaniyasi bosh ijrochi direktori

Jemil Kazanji — Turkiya Respublikasi "Aksa Energy" kompaniyasi boshqaruv kengashi raisi

Mexmet Jengiz — Turkiya Respublikasi "Cengiz Holding" kompaniyasi asoschisi

Shandor Chani — Vengriya Respublikasining "OTP Bank" boshqaruvi raisi

Seyfollax Gasemi — Amerika Qo'shma Shtatlarining "Air Products" kompaniyasi boshqaruvi raisi

Peris Muratoglu — Fransiya Respublikasining "Total Eren" kompaniyasi boshqaruvi raisi

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2023-yil 25-avgust

BUGUNING GAPI

JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH iqtisodiy lokomotiv vazifasini o'taydimi?

Jahon savdo tashkilotiga qachon a'zo bo'lamiz? Qariyb o'ttiz yillik orzu-maqсадimiz qachon ushaldadi? Bu boradagi ishlarni jadallashtirishning imkoni bormi, yana nimalar qilish kerak o'zi? JSTga kirish O'zbekistonga qanday manfaat keltiradi?

Keyingi paytda bu kabi savollar tez-tez beriladigan bo'lib qoldi. Chunki JSTga a'zolikka erishish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadiga hamohang.

Jahon savdo tashkiloti — xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo va siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan shug'ullanadigan hukumatlararo tuzilma. U 1947-yilda tuzilgan xalqaro bitim — GATTning davomchisi hisoblanadi. Bugungi kunda dunyodagi eng yirik hisoblangan xalqaro iqtisodiy tashkilotga 164 davlat a'zo va jahon yalpi ichki mahsulotining 95 foizi ushbu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, xalqaro savdo iqtisodiyotni rivojlantirish hamda qashshoqlikni kamaytirishda misli ko'rimagan imkoniyatlarni taklif qiladi. Biroq ularning amalga oshirilishini ta'minlash global savdoni xalqaro darajada boshqarish va tartibga solishni taqozo etadi. Agar bunday boshqaruv va majburiy tamo-yillar bo'lmasa, xalqaro globalashuv va savdo hozirgi vaziyatni yaxshilash o'rniga iqtisodiy tengsizlikni, ijtimoiy adolatsizlikni, atrof-muhit tanazzulini hamda madaniy bir xillikni kuchaytirishi mumkin.

[▶ Davomi 4-betda](#)

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

QALB SAXOVATI VA BAG'RIKENGLIK FAZILATI totuvlik va milliy taraqqiyotimiz bosh omili

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasida bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha katta tajriba to'plangan. Qo'mita bugungi kunda yurtimizdagi 156 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyati faoliyatini muvofiqlashtirib keladi. Shu tariqa millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik munosabatlarini saqlashga imkon beradigan o'ziga xos model yaratilgan.

Qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik xalqimizga xos fazilat. Yurtimizda tinch-totuv yashashning muhim manbai o'zbek xalqining o'ziga xos mentalitetidir. Zero, asrlar davomida shakllangan mehr-oqibat va saxovat, mehmondo'stlik va rahm-shafqat xalqimizning yuksak ma'naviy fazilatlaridir. Bu fazilatlar eng og'ir tarixiy davrlarda

sinovdan o'tdi va xalqimiz irodasini yanada mustahkamladi.

Bizning zaminda ko'p asrlar davomida turli etnik guruh, madaniyat va dinga mansub aholining ahillikda yashab kelayotgani diniy bag'rikenglik namunasi sifatida qadr topgan.

O'zbekiston Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgani bois, asrlar davomida boy madaniy-tarixiy merosi bilan Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'laydigan noyob ko'priki bo'lib xizmat qilgan.

[▶ Davomi 3-betda](#)

